

ABDULLA QODIRIY VA MARK TVEN HAJVIYOTINING O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

Mehmonova Sarvinoz

Is'hoq qizi

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Ilmiy rahbar:

Qozoqova Nozima Abdulboqiyevna

Namangan davlat universiteti o'zbek

tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston mumtoz adabiyoti namoyandasi Abdulla Qodiriy va amerikalik yozuvchi Mark Tven hajviyotining o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ikkala adibning ijtimoiy-siyosiy voqealarga bo'lgan munosabati, ularning hajv uslubidagi o'xshashlik va milliy-madaniy tafovutlar asosida yoritiladi. Maqola davomida hajviylikning ironik, satirik va sotsiologik jihatlari taqqoslanib, ikki adibning asarlari orqali jamiyatdagi illatlarni qanday ochib berganiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: hajv, satira, ironiya, realizm, jamiyat, ijtimoiy tanqid, muhit

Аннотация: В статье дается сравнительный анализ сходств и различий юмора представителя классической узбекской литературы Абдуллы Кадыри и американского писателя Марка Твена. Подчеркивается отношение обоих писателей к общественно-политическим событиям, сходство в их юмористическом стиле и национально-культурные различия. В статье сравниваются иронический, сатирический и социологический аспекты юмора, а также уделяется внимание тому, как два писателя раскрывали пороки общества через свои произведения. **Ключевые слова:** юмор, сатира, ирония, реализм, общество, социальная критика, окружающая среда.

Abstract: This article provides a comparative analysis of the similarities and differences between the humor of the representative of classical Uzbek literature, Abdulla Qodiriy, and the American writer Mark Twain. The attitude of both writers to socio-political events, the similarities in their humor style, and national-cultural differences are highlighted. The article compares the ironic, satirical, and sociological aspects of humor, and focuses on how the two writers revealed the vices of society through their works.

Keywords: humor, satire, irony, realism, society, social criticism, environment

KIRISH

Adabiyot jamiyat ko'zgusi sifatida har bir davrda ijtimoiy voqelikni aks ettirib kelgan. Bu ayniqsa hajviy asarlar orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Hajviy adabiyot ijtimoiy illatlarni fosh etishda, xalqni o'ylantirish va tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Dunyo adabiyotida bu yo'nalishning ko'zga ko'ringan namoyandaligidan biri amerikalik yozuvchi Mark Tven bo'lsa, o'zbek adabiyotida bu borada Abdulla Qodiriyning o'rni beqiyosdir. Abdulla Qodiriy nomini eslar ekansiz, birinchi navbatda uning sahnalashtirilgan asarlari ko'z oldimizda gavdalanadi. Uning asarlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy masalalarga teran yondashuvi, obrazlar tizimidagi jonli xarakterlar, zamonasining muammolarini fosh etishdagi jasorati bilan ajralib turadi. Abdulla Qodiriy va Mark Tven o'z asarlari orqali ijtimoiy tengsizlik, johillik, mansabparastlik, kibr va riyo kabi salbiy illatlarni fosh qilgan. Har ikkisi hajv orqali jamiyatni o'zgartirish, insonlarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga intilgan. Mazkur maqolada shu ikki adib hajviyotining umumiy va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi.

1. Abdulla Qodiriy hajviyoti: ijtimoiy tanqid va realizm

Abdulla Qodiriy o'zining hajviy asarlarida turli ijtimoiy illatlarni fosh etadi. Ayniqsa, "Kalvak Mahzumning xotira daftari" kabi hajviy hikoyalarida xalq orasida keng tarqalgan johillik, isrof, mansabparastlik, o'zini ulug'lash kabi illatlarni kulgili tasvirlar bilan berib, ularni tanqid qiladi. Qodiriy hajviyotining o'ziga xos xususiyati

— milliy muhitga mos bo‘lgan til va obrazlar orqali nohaqlikni ochib berishidir. Uning hajviy qahramonlari ko‘pincha real hayotda mavjud bo‘lgan, lekin hajv orqali obrazlashgan tiplardir. Bu esa Qodiriyning asarlarida realizm va hajv uyg‘unligini ta’minlaydi. U hajviyotda ham sermahsul ijod qildi. Uning “Kalvak mahzum xotiralari”, “Uloqda”, “Yig‘indi gaplar” kabi satirik hikoyalari orqali zamonaviy o‘zbek satirasiga asos solingan. Adib o‘z hajviy asarlarida jamiyatdagi illatlarni-riyokorlik, mansabparastlik, nodonlik, mutelik, ayollarni kamsitish holatlarini fosh etgan. Badiiy timsollar orqali ularni kulgi vositasida tanqid qilgan. Qodiriy satirasida shaxsiy erkinlik emas, balki ma’naviy uyg‘onish maqsadi ustuvor bo‘lgan.

2. Mark Tven hajviyoti: Amerikancha tanqid va irodiya

Mark Tvenning asarlari hajv orqali amerika jamiyatidagi muammolarni fosh qilishga qaratilgan. “Heklberri Finnning sarguzashtlari”, “Tom Soyverning sarguzashtlari” kabi asarlarda Tven o‘sha davr jamiyatidagi irqchilik, ma’rifatsizlik, soxta dindorlik kabi illatlarni tanqid ostiga oladi. Tvenning hajviyoti ko‘proq irodiya (ya’ni yashirin kulgi), absurdlik va paradokslar orqali shakllanadi. Uning yozuv uslubi global o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lib, jamiyatdagi mavjud stereotiplarni kulgi orqali buzishga harakat qiladi. U ijtimoiy naqadar qabul qilingan haqiqat va voz kechib bo‘lmas holatlarni ironiyali tonda ochib beradi. Masalan, imperializmni tanqid qiluvchi satirik asarlarida qat’iy tarzda irqchilik va diniy gipokratiyalarni fosh etgan. Mark Tven haqiqiy ma’noda hazil vositasida ijtimoiy ogohlantirish yaratgan. Oddiy adabiyot tilini odam tiliga aylantirib, ma’no yukini o‘qiydigan qo‘lida oddiy shaklda yetkazadi. Hazil orqali irqchilik, imperializm, diniy gipokratiya, korrupsiya, va insoniy zaifliklarni tanqid qiladi.

3. O‘xshash jihatlar: Tanqid, irodiya va obrazlar tizimi

Abduula Qodiriy va Mark Tven hajviyotida quyidagi umumiy jihatlar mavjud:

- Tanqid markazida jamiyat turadi.
- Irodiya va kinoya keng qo‘llaniladi.
- Obrazlar real hayotdan olingan.

4. Farqli jihatlar: Tarixiy-madaniy kontekst va uslubiy yondashuv

Abdulla Qodiriy va Mark Tven o'z davri va muhitiga xos tarzda hajv yaratgan:

- Tarixiy kontekstda farq: Qodiriyda Turkiston voqealari, Mark Tvenda Amerika ichki siyosati.
- Til va uslub: Qodiriyda mahalliy leksika, Mark Tvenda xalqchil ingliz tili.
- Murakkablik darajasi: Mark Tven falsafiyroq, Qodiriy xalqona uslubda yondashgan.

5. Hajviy merosning bugungi ahamiyati

Abdulla Qodiriy ijodining muhim qatlamlaridan biri - bu uning hajviy me'rosidir.

Uning bu faoliyati bir necha omillar bilan izohlanadi:

1. Jamiyatdagi muammolarni tanqidiy tahlil qilish vositasi sifatida.
2. Tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi roli.
3. Milliy madaniyat va adabiy tafakkur rivojida tutgan o'rni.
4. Pedagogik va ma'naviy tarbiya vositasi sifatida.
5. Bugungi adabiy jarayonlar uchun ilhom manbai.

Qodiriy va Tvenning hajviy asarlari bugun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ulardagi tanqidiy g'oyalar XXI asr jamiyatidagi muammolarni anglashda, yosh avlodni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti ham Qodiriy an'alariga asoslanib, hajv orqali jamiyatdagi muammolarni ko'rsatishda davom etmoqda. Tvenning esa global tanqidiy yondashuvi yozuvchilar uchun universallik namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa

Abdulla Qodiriy va Mark Tven hajviyoti — ikki turli madaniyatga mansub bo'lishiga qaramay, umumiy insoniy qadriyatlarga asoslangan. Har ikkisi kulgi vositasi orqali jamiyatdagi illatlarni fosh etgan, o'z o'quvchisini o'ylantirishga majbur qilgan. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, milliylik va universallik uyg'unlashgan hollarda adabiyot kuchli ijtimoiy vositaga aylanadi. Shu jihatdan, Qodiriy va Tvenning hajviy

merosi nafaqat adabiy, balki ma'naviy boylik sifatida ham dolzarbdir. Ular quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ijtimoiy-hajviy pozitsiyada mushtaraklik.
2. Hajvning estetik va g'oyaviy maqsadi.
3. Ironiya va yumorning ifoda uslubi.
4. Tarixiy va madaniy kontekst farqlari.
5. Qahramonlar orqali tanqid strategiyasi.
6. Milliy mentalitet va universal g'oyalar uyg'unligi.
7. Adabiy meros va bugungi dolzarblik.

Har ikki adibning hajviy merosi bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Qodiriy hajvi jamiyatni isloh etishga da'vat bo'lsa, Mark Tven hajvi esa, insoniyatni o'zini tanqid qilishga undaydi. Ularning hajviy yondashuvlari zamonaviy adabiyot va jurnalistikaga katta ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodiriy A. "Kalvak Mahzumning xotira daftari". Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1990.
2. Qodiriy A. "O'tkan kunlar". Toshkent: Sharq, 2005.
3. Twain M. "The Adventures of Huckleberry Finn". New York: Penguin Books, 1994.
4. Twain M. "The Adventures of Tom Sawyer". New York: Oxford University Press, 2007.
5. Mamarasulov O. "Abdulla Qodiriy satirasi: tahliliy qarashlar". – Toshkent: Fan, 2019.
6. Kuznetsova L. "Mark Tvenning hajviy uslubi haqida". – Moskva: Akademkniga, 2015.
7. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat, 2008.